

O‘zbekiston

Metamalumot

Axoli daromadlarining 10 foizli (desil) guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul va ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma‘muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta‘lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma‘lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

0.1.2 Ma‘lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Axoli daromadlarining 10 foizli (desil) guruhlar bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatkichlarini shakllantirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (iqtisodiy o'sish, kam ta'minlanganlik, mulkiy munosabatlar, ta'lim darajasi, soliqlarni yig'ish va b.) ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash bilan Markaziy apparatda 9 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limlarida 9-14 nafar xodim shug'ullanadi.

Xodimlar soni daromadlar tengsizligi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli. Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma'lumotga ega va har ikki yilda kamida bir marta Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari Institutida malakasi oshiriladi.

Har bir ish o'rni shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib turiladi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar aholi turmush darajasi statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun etarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

[1.1.3 Statistika ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh](#)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

[1.2.1 Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish](#)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikdir. Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy hujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.Lex.uz manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

[1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati](#)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma‘lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

[1.2.3 Statistika ma‘lumotlarni belgilash](#)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamiyatga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar ma‘lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

O'zbekistonda daromadlar tengsizligini o'lchash uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asoslanadi.

O'zbekistonda aholi umumiy daromadlarining aholining 10 foizli (desil) guruhlar bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatkichlari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2000 yildan buyon barcha hududlar bo'yicha Jahon banki va BMT YeIK talablariga muvofiq ishlab chiqilgan «Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy nizom» ga asosan uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan hisoblanadi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi Tanlama kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,2%) tashkil etadi. Bosh to'plam, O'zbekiston Respublikasida mavjud uy xo'jaliklarining umumiy sonidan iborat.

10 foizli guruhlar bo'yicha aholi daromadlarining differentsiatsiya koeffitsienti ijtimoiy tabaqalanish darajasini ifodalaydi va eng ko'p ta'minlangan aholining 10% eng kam daromadlari eng kam ta'minlangan 10% aholining maksimal daromadidan necha marta oshganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy tabaqalanish ko'rsatkichlari aholi daromadlarining yuqori darajadagi differentsiatsiyasi bilan bog'liq xavflardan kelib chiqadi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo‘q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinadi.

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo‘yicha bo‘lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo‘yicha bo‘lish (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

O‘zbekistonda BMT, IHTT, JB, MDH tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlardan aholi daromadlarining tengsizligi va chegara qiymatlarini hisoblash uchun foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Aholi daromadlarining 10 foizli guruhlar bo‘yicha differenziatsiya koeffitsientini hisoblash uchun uy xo‘jaliklari kuzatuvlari ma‘lumotlar bazasidan foydalaniladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ijtimoiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta‘sirini o‘rganish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha choralarni ishlab chiqishda uy xo‘jaliklari kuzatuv natijalari asos bo‘ladi. Shuningdek, kuzatuv natijalaridan aholi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlar bo‘yicha differenziatsiya koeffitsienti, iste‘mol narxlari indeksini hisoblash, milliy hisoblar tizimida uy xo‘jaliklari sektori hisoblarini tuzish va boshqa iqtisodiy-statistik hisob-kitoblarda foydalaniladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi daromadlarining differenziatsiya darajasi bo‘yicha ma‘lumotlar uy xo‘jaliklarni tanlama kuzatuv asosida shakllantiriladi. Kuzatuv uy xo‘jaliklari a‘zolarining bevosita so‘rov o‘tkazish orqali hamda kunlik xarajatlarni hisobga olish kundaligini to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Boshlang‘ich ma‘lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Uy xo'jaliklari kuzatuv O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida tanlama usulda o'tkaziladi. Kuzatuvlar tanlab olingan uy xo'jaliklarining unda ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etishi orqali tashkil etiladi. Tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaligiga almashtiriladi. Uy xo'jaliklari tanlovi har bir hududda yashovchi aholi sonidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tanlovni amalga oshirishdan avval, tanlov birligi hisoblangan uy xo'jaliklari soni respublikaning hududlari kesimida oldindan taqsimlanadi. Har bir hudud bo'yicha uy xo'jaliklari tanlovi, shahar va qishloq joylari kesimida amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklarining tanlovi ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda mahalla/qishloqlar tanlab olinadi va bu jarayon har olti oyda, yilda ikki marta takrorlanadi. Har bir mahalla/qishloqning tanlovga tushish ehtimoli, ularda mavjud bo'lgan uy xo'jaliklari (yoki aholi) soniga bog'liq. Uy xo'jaliklari tanlovi tanlovning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi. Tanlab olingan mahalla/qishloqlar bo'yicha barcha uy xo'jaliklarining ro'yxatini (uy xo'jaligi boshlig'ining ismi va familiyasi, manzili) hududiy statistika boshqarmalari belgilangan tartibda, elektron ko'rinishda shakllantiradilar. Davlat statistika qo'mitasi ushbu ro'yxat asosida uy xo'jaliklari tanlovining ikkinchi bosqichini amalga oshiradi va kelgusi olti oy davomida kuzatuv o'tkazishda foydalaniladigan uy xo'jaliklari ro'yxatini shakllantiradi. Tanlovning barcha bosqichlari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Uy xo'jaligi tanlangandan so'ng intervyuer bevosita uy xo'jaligida kuzatuv o'tkazadi.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Tanlama metodikasiga muvofiq, respublika bo'yicha kuzatuv ma'lumotlarining representativligini choraklik ma'lumotlar ta'minlaydi. Hududlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashda yillik ma'lumotlardan foydalanish lozim. Ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi tomonidan tartibga solinadi. Choraklik ma'lumotlar chorak yakunlangandan keyingi oyning 25 sanasigacha, yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Hududiy bo'linmalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, nazoratdan o'tadi. Tasniflash hamda nazoratda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Aholining 10 foizli guruhlari bo'yicha aholi daromadlarining differentsiatsiya koeffitsientining taxminiy hisob-kitoblari uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlari bilan konseptual ravishda uyg'un va daromadlar darajasi, moddiy ta'minlanganligi va yashash sharoitlari bo'yicha aholining turli guruhlari bo'yicha differentsiatsiyani aniqlashga imkon beruvchi umumiy yondashuvlar mavjud.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari daromadlar, xarajatlar, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli, natura ko'rinishidagi tushumlar (sovg'alar) qiymati, shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlanishi, uy-joy sharoitlari va turmush sharoitlarining boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Aholi daromadlarining differentsiatsiyasini baholash uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasi bo'yicha taqsimlash qatorlari tuziladi va statistik vaznlashtirish usulidan foydalangan holda uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlari bosh to'plamga yoyiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo'q

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yo'q

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Avval nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarda bu ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Dastlabki yillik ko'rsatkishlar o'tgan yilning shu davridagi yillik hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Aholining daromadlarini aholining 10 foizli guruhlarini bo'yicha taqsimlash - respublika va hududlar bo'yicha har yili amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Turmush darajasi: ma'lumotlar Davlat statistika ishlari Dasturiga muvofiq Davlat statistika qo'mitasining saytida har yili e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik qatorlar tasdiqlanib, e'lon qilingandan so'ng qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlarini bo'yicha taqsimlanishi bo'yicha dinamik qatorlar 2001 yildan mavjud.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Sektorlar va tarmoqlar bo'yicha muvofiqlik mavjud emas.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Yillik statistik ko'rsatkichlar ma'lumotlari davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatlarda yangilanadi. Yillik ma'lumotlar may oyida aniqlashtiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Aholi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlarini taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Aholi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlariga taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar foydalanuvchilarga "Aholining turmush darajasi va farovonligi" tahliliy ma'lumotlari orqali onlayn va elektron shaklda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashrlar

Ma'lumotlar chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga tarqatilmaydi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

Yillik tahliliy ma'lumot

5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Davlat boshqaruv organlari va boshqa foydalanuvchilarga so'rovlar bo'yicha har har yili ma'lumotlar elektron shaklda jadvallarda taqdim etiladi.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aniq tafsilotlarga so'rov bo'yicha ega bo'lish mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonuniga, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga, Statistika axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistika axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarni yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika qo'mitasining veb saytida (<https://lib.stat.uz/uz/uslub-material-uz/turmush-darajasi-va-ijtimoiya-soha>) statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash uchun uslubiy qo'llanmalar joylashtirilib kelinadi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejaları – Qisqa muddatlilari

Yo'q

9.2.2 Takomillashtirish rejaları – O'rta muddatlilari

Aholi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlarini bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va Davlat statistika qo'mitasining saytida (www.stat.uz) joylashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O‘rta muddatli

Uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlarini takomillashtirish maqsadida planshetlar sotib olish 2020 yilga mo‘ljallangan Davlat statistika ishlari dasturi doirasida Davlat budjetidan qo‘shimcha mablag‘ talab qilinadi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>1</u>	
<i>F.I.O.:</i>	Yuldashe Jaxongir Raxmatovich v
<i>Lavozim:</i>	Nachalnik Upravleniya statistiki urovnya jizni i obsledovaniy naseleniya
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	
<i>Departament:</i>	
<i>Idora:</i>	Gosudarstvennyy komitet Respubliki Uzbekistan po statistike
<i>Manzil (1 satr):</i>	prospekt Mustak illik 63
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Tashkent
<i>Mamlakat:</i>	Respublika Uzbekistan
<i>Pochta indeksi:</i>	100170
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 2308166
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	
<i>Elektron manzil:</i>	
Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>2</u>	
<i>F.I.O.:</i>	Madamin Umid Kanjabaeovich ov
<i>Lavozim:</i>	Zamestitel nachalnika - Nachalnik otdela
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	Otdel formirovaniya i analiza indikatorov urovnya jizni naseleniya
<i>Departament:</i>	
<i>Idora:</i>	Gosudarstvennyy komitet Respubliki Uzbekistan po statistike
<i>Manzil (1 satr):</i>	prospekt Mustakillik 63
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Tashkent
<i>Mamlakat:</i>	Respublika Uzbekistan
<i>Pochta indeksi:</i>	100170
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 2308167
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	
<i>Elektron manzil:</i>	
Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>3</u>	
<i>F.I.O.:</i>	Karshib Baxodir Kurbanbaevich aev
<i>Lavozim:</i>	Nachalnik otdela
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	Otdel koordinatsii vyborochnykh obsledovaniy domashnix

xo'zaystv

Departament:

Gosudarstvennyy komitet Respubliki Uzbekistan po statistike
prospekt Mustakillik 63

Idora:

Manzil (1 satr):

Manzil (2 satr):

Shahar/region:

Tashkent

Mamlakat:

Respublika Uzbekistan

Pochta indeksi:

100170